

INNOVATIONS IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Mintaqa xalq hunarmandchiligini ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish metodologiyasi

Norqobilova Feruza Abduhomidovna

Методология разработки технологии производства региональных народных промыслов

Норкобилова Феруза Абдухомуидовна

Methodology for developing technology for the production of regional folk crafts

Norkobilova Feruza Abdukhamidovna

Received: May 3, 2025 Revised: May 8, 2025 ■ Accepted: May 9, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotasiya.** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati xalq hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va shu asosida oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashish orqali ish bilan band qilish masalalarini ekonometrik modellashirishning trend modeli asosida baholash yoritilgan.
- **Kalit so'zlar:** xalq hunarmandchilik, raqamlashtirish, raqamli texnologiya, trend model, ekonometrika, prognoz.
- **Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие народных промыслов Кашкадаринской области и оценка вопросов занятости на основе трендовой модели эконометрического моделирования путем поддержки на этой основе семейного предпринимательства.
- **Ключевые слова:** народные промыслы, цифровые технологии, трендовая модель, эконометрика, прогноз.
- **Abstract.** It is explained by the scientific justification of methodological approaches to the assessment of the role of family entrepreneurship in the development of folk crafts in the region, as well as the possibility of using them to improve the organizational and institutional basis of regulating family entrepreneurship.
- **Key words:** institutional, digital, technology, trend, model, econometric, forecast, results, information, system, endogenous, exogenous.

KIRISH

O'zbekistonda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda mamlakatimizdagi xalq hunarmandlar soni 8 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 250 ming nafarga etdi.

Ayniqsa mintaqalarda xalq hunarmandlarning amaliy san'atini yanada rivojlantirish asosida mintaqalarda milliy xalq hunarmandlarning kataloklarini yaratish, xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarni tashkil etish va xalq hunarmandlar turizm reestriga kiritish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mahallabay ishlash orqali oilaviy tadbirkor hunarmandlarda foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to'la ishga solish, hunarmandlar o'rtasida o'zaro tajriba almashish tizimini yanada kengaytirish,

hunarmandchilik mahsulotlari uchun yangi bozorlarni topish borasida qo'shimcha choralar ko'rish talab etilmoqda.

Mintaqa aholisini xalq hunarmandchilik sohasiga jalb qilish tizimini takomillashtirish, «usta-shogird» an'analari asosida mahallalarda yoshlarga hunar o'rgatish va bandligini ta'minlash, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish hamda hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga bir qancha islohotlarni izchil davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son qarori [1] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-77-son «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [2] Qarorlari qabul qilindi, ushbu qaror mamlakatimiz aholisini ish bilan band qilish, ularning loyihalarini moliyalashtirish, hunarmandchilik sohasini rivojlantirish va hunarmandlarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada «Hunarmand» uyushmasi a'zolariga ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va xom ashyo materiallarini xarid qilish, hunarmandchilikni rivojlantirish markazlari, «usta-shogird» maktablarini tashkil etish, uy-muzeylar va ustaxonalar qurish yoki shu maqsadlarda bino va inshootlar sotib olish uchun 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larini to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga ajratilishi nazarda tutilganligi xalq hunarmandchilik sohasidagi ijobiy o'zgarishlar ko'zatilmoqda.

Xalq hunarmandchilikni raqamlashtirish bu zamonaviy raqamli hunarmandchilikning rivojlanishini bugungi kunda kuzatilishi mumkin bo'lgan shaklidir. Mintaqada xalq hunarmandchilik rivojlanishini trend modellar asosida baholash va xalq hunarmandchilikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan holatlar hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalq hunarmandchilikni rivojlantirishning iqtisodiy muammolari va mintaqalarda xalq hunarmandlarning amaliy san'atini yanada rivojlantirish asosida mintaqalarda milliy xalq hunarmandchilikni raqamlashtirish masalalarida xorijlik iqtisodchi olimlardan Basco [3] shuningdek, milliy iqtisodiyotda oilaviy hunarmandchilikning ijobiy tomonlari shundaki korporativ boshqaruv va hunarmandchilikning rivojlanishiga institusional yondashuv nuqtai nazaridan, ularning o'ziga xos tomonlari o'rganilgan (Banalieva, Eddleston, Zellweger; Steier) [4].

Ushbu yo'nalish bo'yicha respublikamiz olimlari A.O'Imasov[5], D.T.Yuldashev, O.M.Pardaeva [6] va boshqalar

o'z ishlarida oilaviy biznes va hududlar rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy modeli xalq hunarmandchilikning ijobiy tomonlari tadqiq etadi. Bunda asosiy e'tibor oilaviy biznes asosida milliy hunarmandchilikga qaratilgan bo'lib, xalq hunarmandchilikni raqamlashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy tabiati nuqtai-nazaridan ochib berilmagan.

Ayni paytda xalq hunarmandchilik sohasida raqamlashtirish va istiqbollarini belgilash borasida olib borilayotgan ishlar ham masalaga jiddiy yondashgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida xalq hunarmandchilik sohasini rivojlantirishning istiqbollarini belgilashda matematik modellashirish usulidan keng foydalanilgan holda korrelyasion tahlilida trend modellarining regression tahlil natijalari ko'ra empirik modeli ishlab chiqildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqa aholisi bandligini oshirishda turizm va hunarmandchilik muhim rol o'ynaydi, chunki bu sohalar iqtisodiy faollikni oshirib, yangi ish o'rinlari yaratishda katta ahamiyatga ega. Hunarmandchilik sohasida faoliyat yuritish uchun katta kapital talab qilinmaydi, bu esa mahalliy aholining turli qatlamlari uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Odatda, hunarmandlar o'z oilasi a'zolari bilan ishlaydi va vaqt o'tishi bilan o'z biznesini kengaytirib, boshqa kishilarni ham ish bilan ta'minlaydi. Hunarmandchilik shogirdlik tizimi orqali yoshlarni malaka bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu esa keyinchalik ularning mustaqil faoliyat yuritishiga yordam beradi. Fikrimizcha ish o'rinlarining kamayishi turli omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, va bu jarayon mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy, va siyosiy holatiga bog'liq. Iqtisodiy inqiroz yoki pasayish davrida ishlab chiqarish hajmi kamayadi, korxonalar faoliyatini to'xtatadi yoki qisqartiradi, bu esa ish o'rinlarining kamayishiga olib keladi. Korxonalar o'z xarajatlarini kamaytirish uchun ishchi kuchini qisqartirishga majbur bo'ladi. Mintaqa iqtisodiyotiga xos bo'lgan noqulay iqtisodiy sharoitlar, masalan, qishloq xo'jaligida hosildorlikning pasayishi, ishlab chiqarishning susayishi yoki eksport imkoniyatlarining cheklanishi ham ish o'rinlarining qisqarishiga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida texnologik rivojlanish bilan bog'liq ravishda avtomatlashtirish ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Viloyatda 2024 yilda yaratilishi prognoz qilingan ish urinlarining holati (1-jadvalda) ko'rsatilgan.

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, Qashqadaryo viloyatida hunarmandchilik va shogirdlar sonining taqsimlanishini tahlil

1-jadval

Qashqadaryo viloyati turizm va hunarmandchilik orqali yaratilgan ish o'rinlari

T\R	HUDUD NOMI	JAMI SONI	SHUNDAN	
			HUNARMAND	SHOGIRD
	Qashqadaryo viloyati	4 630	1 230	3 400
1	Ko'kdala t.	135	50	85
2	Qarshi sh.	465	120	345
3	G'uzor t.	260	75	185
4	Shahrisabz sh.	465	120	345
5	Dehqonobod t.	270	60	210
6	Qamashi t.	420	75	345
7	Qarshi t.	240	60	180
8	Koson t.	300	75	225
9	Kasbi t.	195	50	145
10	Kitob t.	465	120	345
11	Mirishkor t.	125	50	75
12	Muborak t.	125	50	75
13	Nishon t.	125	50	75
14	Chiroqchi t.	465	120	345
15	Shahrisabz t.	275	80	195
16	Yakkabog' t.	300	75	225

qilsak, quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin: Qashqadaryo viloyatida jami 4 630 nafar hunarmand va ularning shogirdlari mavjud bo'lib, shundan 1 230 nafari hunarmandlar, qolgan 3 400 nafari esa shogirdlardir. Hunarmandlar jami sonining qariyb 27% (1 230 hunarmand) tashkil etadi, qolgan 73% esa shogirdlarga to'g'ri keladi. Ko'kdala tumani: Bu tumanda jami 135 kishi mavjud bo'lib, 50 nafari hunarmand va 85 nafari shogird hisoblanadi. Hunarmandlar ulushi 37%, shogirdlar esa 63%. Qarshi shahri: Hunarmandlar soni 465, shogirdlar soni esa 345 bo'lib, shogirdlar ko'rsatkichiga yaqin, ya'ni 26% hunarmand, 74% shogird. Bu yerda shogirdlar soni ko'proq. G'uzor tumani: Jami 260 kishi faoliyat yuritadi, shundan 75 nafari hunarmand va 185 nafari shogird. Hunarmandlarning ulushi 29%, shogirdlar esa 71%. Shahrisabz

shahri: Qarshi shahriga o'xshash bo'lib, jami 465 kishi bo'lib, hunarmandlar 120 kishi, shogirdlar esa 345 nafarni tashkil qiladi (26% hunarmand, 74% shogird). Dehqonobod tumani: Tumanda jami 270 kishi mavjud, 60 nafari hunarmand, qolgan 210 nafari shogird. Hunarmandlar 22%, shogirdlar esa 78% ulushga ega. Qamashi tumani: Jami 420 kishining 75 nafari hunarmand va 345 nafari shogird. Hunarmandlar 18% ulushga ega, shogirdlar esa 82%. Qarshi tumani: 240 kishi mavjud bo'lib, 60 nafari hunarmand, 180 nafari shogird. Bu yerda hunarmandlar 25%, shogirdlar esa 75% ulushni tashkil etadi. Koson tumani: Tumanda jami 300 kishi bo'lib, 75 nafari hunarmand, 225 nafari esa shogird. Hunarmandlar 25%, shogirdlar esa 75% ulushga ega. Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlarga ko'ra, shogirdlar soni hunarmandlar sonidan ancha

yuqori, ko'p joylarda shogirdlar ulushi 70% va undan yuqori bo'lgan. Bu holat hunarmandchilik an'alarining davom etishi va shogirdlar orqali hunarmandlar bilimini uzatish jarayoni kuchli ekanligini ko'rsatadi. Aksariyat tumanlarda shogirdlar soni hunarmandlarga nisbatan sezilarli ko'p.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kutilayotgan natija mamlakatimizda qadimdan mavjud ammo yaqin yillar davomida yo'qolib borayotgan hunar turlarini tiklash va rivojlantirish, milliy merosimizni avlodlardan avlodga etkazib berish, aholi va xorijiy mamlakatlarga milliyligimizni, urf-odatlarimizni an'alarimizni, hunarmandchilik mahsulotlari orqali anglatishimiz, respublikamizning rivojlanmagan olis tog'li hudud aholisini ham ish bilan band qilish yuqori darajadagi texnologiyalarsiz ham mavjud xom-ashyolar (jun, ipak, teri, tuproq, yog'och, temir va b.) orqali hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqish, daromalga ega bo'lish imkoniyatini yaratib berishdir.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Norqobilova Feruza Abduhomidovna Qarshi davlat texnika universiteti "Biznes va boshqaruv" kafedrasi mudiri i.f.f.d., dotsent. / Норқобилова Феруза Абдухомуидовна, заведующая кафедрой «Бизнес и менеджмент» Каршинского государственного технического университета, доктор философских наук, доцент. / Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Head of the Department of "Business and Management" of Karshi State Technical University, Doctor of Philosophy, Associate Professor.**

► fnorqobilova85@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-9911-5070>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda qabul qilingan «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-55-son // <https://lex.uz>
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda qabul qilingan PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
- [3]. Basco, R. Family business and regional development - A theoretical model of regional familiness. Journal of Family Business Strategy (2015), <http://dx.doi.org/10.1016/j.jfbs.2015.04>
- [4]. Banalieva E.R., Eddleston K.A., Zellweger T.M. When do family firms have an advantage in transitioning economies? Toward a dynamic institution-based view // Strategic Management Journal. – 2015. –T. 36. -№ 9.
- [5]. O'lmasov A. Oila iqtisodiyoti. Toshkent – "Mexnat"– 1998.;
- [6]. Pardaev M.Q. Oila xo'jaligi iqtisodiyoti va tadbirkorligi. Samarqand 2001 y.;
- [7]. Norqobilova. F. A. International scientific and practical conference // Iqtisodiy erkinlik indeksi hunarmandchilik sohasini rivojlantirishdagi roli (zenodo.org), 2023. – p 255-257
- [8]. Arens R. Complex processes for envelopes of normal noise // IRE Trans. Inform. Theory, Sept. 1957, vol. IT-3, pp. 204-207.
- [9]. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich1, Norqobilova Feruza Abdihamidovna2. // Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region / Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.
- [10]. F. A Norqobilova. // Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modellashtirishda tizimli tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirish / Vol. 1 No. 2 (2021): International journal of conference series on education and social sciences. (Online) p. 224-228.